

Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich,
Andijon davlat universiteti «Pedagogika» kafedrası
dotsent vazifasini bajaruvchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KUNDALIK-AMALIY TOPSHIRIQLAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOGNITIV MUSTAQILLGINI RIVOJLANTIRISH FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK ASPEKTLARI ("TARBIYA" FANINI O'QITISH MISOLIDA)

UO'K: 378.147.88

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2024_ISSUE_8_1](https://doi.org/10.34920/so/vol_2024_issue_8_1)

**ABDUVALIYEV N.A. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KUNDALIK-AMALIY TOPSHIRIQLAR
ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOGNITIV MUSTAQILLGINI RIVOJLANTIRISH
FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK ASPEKTLARI ("TARBIYA" FANINI
O'QITISH MISOLIDA)**

Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarni kundalik-amaliy topshiriqlar orqali o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlashning didaktik va metodik jihatlarini tahlil qiladi. Maqolada o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish uchun bo'lajak o'qituvchilar metodik va didaktik kompetentlikka ega bo'lishlari zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada "yaqin rivojlanish zonasi, konsepsiyasi, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda topshiriqlarni ishlab chiqish va o'qituvchilarning pedagogik kuzatuvchanligi haqida so'z yuritiladi. O'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish faoliyati uch toifaga ajratilib, har bir toifa uchun mos pedagogik yondashuvlar tavsiya etiladi. Maqola, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligini oshirish va ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish zarurligini ko'rsatib beradi.

Tayanch so'z va tushunchalar: kognitiv mustaqillik, didaktika, metodika, bo'lajak o'qituvchi, ta'lim texnologiyalari, pedagogik faoliyat, metodologik asoslar, ta'lim jarayoni, mustaqil o'qitish, o'quv-uslubiy kompleks.

АБДУВАЛИЕВ Н.А. ДИДАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К РАЗВИТИЮ КОГНИТИВНОЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ПОВСЕДНЕВНЫХ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА "ВОСПИТАНИЕ")

В данной статье проанализированы дидактические и методические аспекты подготовки будущих учителей к деятельности по развитию познавательной самостоятельности учащихся посредством ежедневных практических задач. Подчеркивается необходимость владения будущими учителями методической и дидактической компетентностью для развития познавательной самостоятельности учащихся. Также приведены данные о понятии «зона ближнего развития», разработке заданий с учетом психологических особенностей учащихся, педагогическом наблюдении учителей. Отмечается, что деятельность по развитию познавательной самостоятельности учащихся разделена на три категории, для каждой из которых рекомендуются соответствующие педагогические подходы. Также показана необходимость повышения профессионально-педагогической компетентности будущих учителей и внедрения инноваций в образовательный процесс.

Ключевые слова и понятия: когнитивная самостоятельность, дидактика, методика, будущий учитель, образовательные технологии, педагогическая деятельность, методические основы, учебный процесс, самостоятельное обучение, учебно-методический комплекс.

ABDUVALIYEV N.A. DIDACTIC ASPECTS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE INDEPENDENCE OF STUDENTS BASED ON DAILY PRACTICAL TASKS («IN THE CASE OF TEACHING EDUCATION»)

In this article will analyze the didactic and methodological aspects of preparing future teachers for the activity of developing students' cognitive independence through daily practical tasks. In this article will emphasize the need for future teachers to have methodological and didactic competence in order to develop students' cognitive independence. Also, In the article will talk about the concept of «near development zone», the development of tasks taking into account the psychological characteristics of students, and the pedagogical observation of teachers. The activity of developing students' cognitive independence is divided into three categories, and appropriate pedagogical approaches are recommended for each category. In this article will show the need to improve the professional-pedagogical competence of future teachers and implement innovations in the educational process.

Key words and concepts: cognitive independence, didactics, methodology, future teacher, educational technologies, pedagogical activity, methodological foundations, educational process, independent teaching, educational-methodical complex.

Kirish. Bo'lajak o'qituvchilarni kundalik-amaliy topshiriqlar asosida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlash – kontseptual jihatdan didaktik hamda metodik faoliyatni o'z ichiga oladi. Didaktik jihatdan tahlil qilinganda bir fan negizida topshiriqlar fanning xususiyati va mazmuniga asosan shakllanadi. Metodik jihatdan esa o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini ta'minlash faoliyatiga tayyorlash bo'lajak o'qituvchilardan metodik bilimlarni taqozo etadi.

O'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish faoliyati bo'lajak o'qituvchilardan metodik va didaktik kompetent bo'lishlikni talab etadi. A.G.Bermus "kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini: bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig'ini yagona tizimga birlashtiradi"¹ degan xulosaviy fikrga keladi. Metodik kompetentlik bo'lajak o'qituvchidan turli ta'lim sharoitlarida o'qitishni samarali rejalashtirish, bilimlarni yetkazish va baholash uchun talab qiladigan pedagogik mahorat, bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Mavzuning dolzarbligi bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish juda muhim masalaga aylangan. O'quvchilarning mustaqil fikrlashi, o'z bilim va ko'nikmalarini kengaytirishiga yo'naltirilgan ta'lim metodlarining rivojlanishi zamonaviy jamiyatning talablari bilan bog'liq. Maqola bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarning metodik va didaktik kompetentliklarini oshirish zaruriyatini ta'kidlaydi. Bu esa pedagoglar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish orqali ta'lim sifatini yaxshilashning dolzarb vazifasi ekanini ko'rsatadi.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

C.Aufschnaiter "topshiriqlarning o'quv mashg'ulotida tizimli qo'llash optimal o'quv jarayoniga hal qiluvchi ta'sir"ga ega ekanligini ta'kidlaydi hamda o'z mulohazalarini davom ettirib "topshiriqlar an'anasi"ni rivojlanishiga yana bir muhim omil bu o'quvchilarning mustaqil tushuntirib berish ko'nikmalarini rivojlanti-

rishdan iborat ekanligini bayon qiladi². Topshiriqlarda o'quvchilarga taqdim qilinadigan ma'lumotlar tayyor holatda emas, balki mustaqil ravishda qidirish, takrorlash va boshqa topshiriqlar bilan taqqoslash orqali ma'lumotlar topishi nazarda tutilishi kerak. Topshiriqlar o'quv jarayonining davom etishiga qarab murakkablashib borishi lozim.

X.Gudjons "murakkab bo'lib boruvchi topshiriqlarni bajarish orqali bilimlar yangidan tizimlashib boradi. Amaliyotda qo'llanilishiga oid topshiriqlarni bajarish orqali esa boshqa bilimlar bilan mujassamlashib, tayanch bilimlarga bog'lanib boradi"³ degan xulosaga kelgan.

O'quv jarayonida kundalik-amaliy topshiriqlar kognitiv mustaqillikni rivojlantirishning zaruriy sharti sifatida qaraladi. Kundalik-amaliy topshiriqlar o'quvchilarning tadqiqotchilik, ijodkorlik qobiliyatini va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantiradi. "O'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilishda o'zaro bog'liq ikki vazifani e'tiborga olish lozim. Ularning birinchisi – o'quvchilar ijodkorlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifasi; ikkinchisi – o'zlashtirilgan bilimlarni ta'limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish vazifasi"⁴.

Maqolaning ilmiy yangiligi o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim metodlari va yondashuvlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi usullarni taklif qilishidadir. Ushbu yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularga mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Maqola, shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishda yangi metodologik yondashuvlarning roli va ahamiyatini yoritadi, bu esa pedagogik jarayonni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

² Haeußler P., Lind G. "Task Culture" - What is that? // In: Practice of Natural Sciences - Physics 49 (2000) No. 4. – P. 2-10.

³ Gudjons H. Intelligent practice. Methods and strategies // <https://www.fachportal-paedagogik.de/literatur/vollanzeige.html>, 26 (2006) 138-139. – P. 13.

⁴ Шарипов Ш.С. Ўқитувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлаш технологиялари: "Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар" халқаро илмий конференцияси материаллари. –Т.: ТДПУ, 2018. – 6-11 б.

¹ Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. - www.eidoc.ru. 2005.09.10.

Tadqiqotning maqsadi o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish uchun yangi pedagogik metodlarni va innovatsion ta'lim yondashuvlarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishdir. Bu maqsadga erishish orqali, o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tadqiq qilish ko'zda tutilgan.

Tadqiqotning obyekti o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirishda qo'llaniladigan pedagogik metodlar va innovatsion ta'lim yondashuvlari.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar.

Adabiyot tahlili: Tadqiqot mavzusiga doir mavjud ilmiy ishlanmalar va metodikalarni o'rganish.

So'rovnoma va anketa: O'quvchilarning kognitiv mustaqillik darajasini aniqlash va pedagogik metodlarning samaradorligini baholash uchun ma'lumot to'plash.

Ekspirimental metod: Ta'lim jarayonida yangi pedagogik metodlarni sinovdan o'tkazish va ularning natijalarini solishtirish.

Statistik tahlil: Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va metodlarning samaradorligini aniqlash uchun statistik vositalarni qo'llash.

Suhbat va intervyu: O'qituvchilar va o'quvchilardan metodlarning amaliy qo'llanishi va ularning ta'siri haqidagi fikrlarini yig'ish.

Asosiy qism.

Ma'lumki, "Tarbiya" fani didaktik jihatdan jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy hayot bilan chambarchas ravishda rivojlanib boradi. Hozirgi o'quvchi-yoshlar uchun zaruriy ijtimoiy-axloqiy me'yorlar ushbu fanning mazmunida o'z aksini topadi. Hozirgi maktab o'quvchilarining yosh va rivojlanish xususiyatlari, ular rivojlanayotgan ijtimoiy muhit, ularning fikrlash tarzining o'zgarishi ham pedagogik faoliyatni moslashuvchan tarzda rivojlantirish zaruratini tug'diradi. Zamonaviy innovatsion ta'lim o'quv jarayoniga ta'sir qiluvchi har qanday ijtimoiy-pedagogik, psixologik, texnik-texnologik omillarni hisobga olishi va shunga mos ravishda metodik yondashuvni taqozo etadi. Bu fikr e'tirozli bo'lishi mumkin. Bu e'tirozli mulohazaga "yaqin rivojlan-

ish zonasi"¹ tushunchasi bilan javob izlash mumkin bo'ladi. Rus olimi L.S.Vigotskiy fanga olib kiritgan bu tushuncha o'quvchi hali mustaqil bajara olmaydigan, lekin yordam berilsa qila oladigan narsalarni bildiradi. Ta'lim jarayonida muttasil tarzda yaqin rivojlanish zonasi aktual rivojlanish zonasiga aylanib boradi (ya'ni bu narsalarni o'quvchi yordamsiz ham bajara olish darajasiga chiqadi). Lekin yaqin rivojlanish zonasi "tutashuv nuqtalari"²ga asoslanadi, ya'ni hech qanday "tutashuv nuqtasi" bo'lmagan narsa yaqin rivojlanish zonasi bo'la olmaydi. Demak, o'quvchi yoshi va uning hozirgi rivojlanish "sxemasi"ga mos bo'lmagan material berish pedagogik nazariyalarga zid ekanligini ko'rish mumkin. Kundalik-amaliy topshiriqlar shakllantirishda bu jihatlar inobatga olinishi lozim.

Bo'lajak "Tarbiya" fani o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligining asosiy malaka talablaridan biri sifatida ularning pedagogik kuzatuvchanligini keltirish mumkin. Bo'lajak o'qituvchining eng kuchli jihatlaridan biri sifatida pedagogik kuzatuvchanligi – kundalik-hayotiy vaziyatlarni o'quv jarayoniga didaktik soddalashtirish, ishlov berish orqali tatbiq etishi muhim pedagogik mahorat hisoblanadi.

Pedagogik kuzatuvchanlik o'quv jarayonini mazmun hamda tashkiliy jihatdan samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. O'quv jarayonidagi muammolarning aksariyati pedagogning salohiyati bilan bog'liq. Ta'lim sohasida muvaffaqiyatga erishgan davlatlarning yuqori natijalarga erishganligi o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ularga yaratilgan "mustaqil faoliyat va qaror qabul qilish" erkinligi bilan izohlanadi. O'rganish va tahlillar tezkor rivojlanayotgan ta'lim jarayonlarining talablaridan zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi orqada qollayotganini ko'rsatadi. Bu esa pedagogik oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarni tayyorlashning muhim jihati sifatida bo'lg'usi o'qituvchilarga "real hayotdagi jarayonlarni pedagogik nuqtai nazardan baholovchi va bu jarayonlarni o'quv jarayoniga didaktik jihatdan to'g'ri singdira oladigan mutaxassislar" bo'lishligini ko'rsatib o'tadi. Bu esa mavjud pedagogik oliy ta'limni rivojlanti-

¹ Мещерякова Б.Г., Зинченко В.П. Большой психологический словарь. – М.: Прайм-ЕВРОЗНАК. 2003. – С. 56.

² DiMaggio P. Culture and cognition. Annual Review Of Sociology, 1997. 263-287. doi:10.1146/annurev.soc.23.1.263.

rish va uzluksiz ta'lim jarayonida pedagoglar salohiyatini oshirish muammolarining dolzarbligini ko'rsatadi. Pedagoglarning salohiyati shu nuqtai nazardan ularning metodik kompetentligi bilan izohlanadi.

"Tarbiya" fanidan o'quv mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishi topshiriqlarning o'quv maqsadlariga mos ravishda tanlanishi, didaktik jihatdan asoslanishi, ta'lim maqsadlariga yo'naltiruvchi didaktik vosita sifatida tanlanganligi hamda hayotiy-amaliy faoliyat bilan bevosita yoki bilvosita bog'lash o'qituvchining professional yondashuviga bog'liq bo'ladi. Topshiriqlar davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan fanga oid va tayanch kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiluvchi didaktik vosita vazifasini bajaradi. O'qituvchi topshiriqlar orqali o'quv jarayonini moslanuvchanligi va to'liqligiga erishishi lozim. O'quv jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlar o'quv va nazorat topshiriqlariga bo'linadi¹.

O'quv topshiriqlari yangi mavzuni mustaqil yoki sinfda o'rganish maqsadida tuziladi. O'quvchilar o'quv topshiriqlarini o'zaro almashishlari va taqqoslashlari, topshiriqning yechish usullarini muhokama qilishlari va yechimlarini taqqoslashlari mumkin bo'ladi. O'quv topshiriqlari oldindan ko'rsatilgan usullarni o'quvchining mustaqil qo'llash ko'nikmasini shakllantirish uchun qo'llaniladi. O'quv darsliklarida o'quv topshiriqlari murakkablik darajasiga qarab belgilab qo'yilgan. Yuqori murakkablik darajasidagi topshiriqlarning bajarilishi o'quvchining mazkur mavzu bo'yicha yaxshi o'zlashtirganligini belgilaydi. Nazorat topshiriqlari orqali o'quvchining individual savodxonligi baholanadi. Nazorat topshiriqlari ko'p hollarda bir qancha o'quv topshiriqlarining birlashmasidan iborat bo'lib, ma'lum vaqtda o'tilgan mavzularga oid bir qancha topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Mazkur topshiriqlarda mavzulararo topshiriqlar kamdan-kam uchraydi va asosan mavzularga oid topshiriqlardan iborat bo'ladi. O'quvchilar ko'p holatda bunday topshiriqlarni chorak yakunlari yoki sinfdan sinfga ko'chish imtihonlarida yechishadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlashda oliy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayoni yetarli emas va buni mustaqil ta'limsiz ham rivojlantirish mumkin emas. Talabalarni mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish, qo'llab-quvvatlash ham ularda metodik kompetentlik shakllanishining pedagogik shart-sharoitlari sifatida qaraladi. O'qituvchi tomonidan topshiriqni to'g'ri yechimga yo'naltirish emas, balki shu topshiriq orqali o'quvchining fikr yuritishi, topshiriqqa o'zgacha yondashishni ta'minlashi kerak bo'lgan topshiriqlar ishlab chiqilishi va qo'llanilishi kerak. Bunday topshiriqlarni ishlab chiqishda o'quvchilarning o'zlari yashab, yaxshi bilgan hududi misolida ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi o'quvchi bilan topshiriqni yechish strategiyasi haqida suhbatlashgani ma'qul, biroq topshiriqning yechimini to'g'ri yoki noto'g'riligi bo'yicha suhbatlashmaslik maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar o'quvchi topshiriqni yechish jarayonida noto'g'ri usul bilan ishlayotgan bo'lsa, imkon qadar kutish lozim. Bu o'quvchining mustaqil o'rganish, xatolar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Topshiriqlar orqali o'quvchi ma'lumotlarni tizimli qidirish, mantiqiy ketma-ketlikda topshiriqni yechishni rejalashtirish, reja asosida amalga oshirish, o'z natijalarini baholash va takomillashtirish uchun yangi ma'lumotlar ustida ishlash kabi to'liq faoliyatni amalga oshiradi. Bu esa o'quvchining o'z fikrining ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish, topshiriqni chuqur va keng qamrovli yondashish orqali yechish, o'z fikrini kuchli tomonlarini dalillar bilan isbotlash, o'z pozitsiyasini bildirish, shuningdek, topshiriq yechimiga bo'lgan tanqidiy fikrlarni qabul qilish kabi kompetensiyalarni rivojlanishiga katta turtki bo'ladi. Bu kompetensiyalar kasbiy identitet bilan uzviy aloqaga ega holda rivojlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlash kasbiy-individual rivojlanishi mazmuni bilan uzviy aloqadorlikka ega. O'quvchilarni kognitiv mustaqilligini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlash o'qitish jarayonlarini samarali rejalashtirish, amalga oshirish va baholash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, o'quvchilarning individual kognitiv ehtiyojlarini qondira olish, izchil dars rejalarini

¹ Lethiger H. Learning and performance tasks in a competency-oriented classroom // <https://www.budrich-journals.de/index.php/HiBiFo/article/view/File/10123/8722>. – P. 12-24.

ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning yutuqlarini to'g'ri baholay olishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, ta'lim sohasidagi tendentsiyalar, o'zgarishlarni hamda ta'limdagi innovatsiyalarni o'zlashtirish va o'z kasbiy-pedagogik faoliyatiga tatbiq etishni ham qamrab oladi.

I.P.Podlasyning fikriga ko'ra, ta'lim innovatsiyalari pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi, o'quv jarayoni, pedagogik nazariyaning, o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi, ta'lim oluvchi faoliyatining yangilanishi, pedagogik texnologiyaning, o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi, ta'lim mazmunining yangilanishi, ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi, ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi¹.

Talabalarning kasbiy, jumladan metodik kompetentligi rivojlanish jarayoni innovatsion faoliyat bilan chambarchas bo'g'liq. M.Jumaniyozovaning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyat ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish, pedagogik tadqiqot metodlarini egallash, mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati, tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish, o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish, hamkasblar bilan hamkorlik, fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik, ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish kabi belgilar asosida namoyon bo'ladi².

O'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati "o'qituvchi – pedagog – o'quvchi" o'zaro aloqasi negizida olib boriladi, aynan shu jarayonda ta'limiy, tarbiyaviy, shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va korreksion maqsadlar amalga oshiriladi.

Olib borilgan tadqiqotlar, konsultativ va korreksion-rivojlantiruvchi amaliyot natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning muayyan interaktiv xatoliklarga yo'l qo'yishi oqibatida quyida holatlar kelib chiqadi:

- o'quvchiga "yuqoridan" munosabatda bo'lish;
- pedagogning o'z kompetentligini mutlaqlashtirishi;

- ta'lim oluvchilarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olmaslik;
- o'quvchi bilan konstruktiv munosabatlarni yo'lga qo'yish mumkinligiga ishonmaslik;
- o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va unga yordam berishni uddalay olmaslik;
- o'quvchiga nisbatan psixologik hamkorlik, tenglik pozitsiyasiga o'tishni professional jihatdan uddalay olmaslik.

Har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish natijasida o'quvchida "men" tushunchasi vujudga keladi. O'quvchida o'zini anglash tushunchasi qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtai nazar, o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi³.

Kognitiv mustaqillikni rivojlantirishda bir o'quv mashg'ulotida bir yoki ikki mazmunan bir-birini to'ldiruvchi kundalik-amaliy topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu mashg'ulotlar o'rgangan bilimlarni bir yo'nalishda mustahkamlanishiga yordam bersa, turli topshiriqlarning taklif qilinishi ularda kognitiv dissonansni keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur holatda kognitiv dissonans turli-tumanlik orqali fikrlar va emotsiyalarning mustahkam yakunlangan shaklga kelmasligiga nisbatan qo'llaniladi. Adabiyotlar tahlili va o'z kuzatuvlarimiz asosida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini uch toifaga ajratish mumkin: situatsion faol, kognitiv faoliyatga faol hamda ijodiy faol. Quyida uch toifadagi o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi tavsifi keltirib o'tiladi:

1. O'quvchilarning birinchi toifasi situatsion faol bo'ladi. Bunday o'quvchilar ma'lum vaziyatlarda qiziqish va faollikni namoyon qiladi. Ular ma'lum bir mashg'ulot mazmuniga qiziqqanda yoki o'qituvchi noan'anaviy metodlardan foydalanganda hissiy qo'zg'aluvchanlik ko'zga tashlanadi. Bu toifadagi o'quvchilar mashg'ulotlar davomida takrorlash mashqlaridan ko'ra yangi ma'lumotlar keltirilgan mavzuni tushunishni afzal ko'radilar. Ular yangi mashg'ulotlarga tez moslashuvchan bo'ladi, agar murakkab deb hisoblasa qiziqishni yo'qotishi mumkin. Bunday o'quvchilar bilan doimiy faollashtirish ustida ishlash talab qilinadi. Bu toi-

¹ Подласый И. П. Педагогика в 2 т. Том 1. Теоретическая педагогика в 2 книгах. Книга 1., 2018.

² Jumaniyozova M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016.

³ Давлетшин М., Дўстмухамедова Ш., Мавлонов М., Тўйчиева С., Джумабаева М. Ёш ва педагогик психология. – Т.: 2007. – Б. 45. (144).

fadagi o'quvchilarga shoshqaloqlik xos xususiyat hisoblanadi. Ularga vaziyatga qarab "qo'llab-quvvatlash signallari"ni yuborish, ma'lum o'quv faoliyati uchun harakatlar algoritmini yaratish kerak bo'ladi. Kundalik-amaliy topshiriqlarni idrok qilishga, ishtiyoq hisini uyg'otishga va muvaffaqiyat tuyg'usini boshdan kechirishga sabab bo'ladi, uzluksizlik natijasida intellektual va ixtiyoriy harakatlarga aylanadi.

2. O'quvchilarning ikkinchi toifasi dinamik faol hisoblanadi. Bu toifadagi o'quvchilar barcha topshiriqlarni faol darajada bajaradilar. O'qituvchi qo'llagan barcha metodlar faolligiga ta'sir qilmaydi. Bu toifadagi o'quvchilarning asosiy ustuvorligi izchillik va barqaror xarakteridir. O'qituvchi bu toifadagi o'quvchilar bilan ishlashda ba'zi bir jihatlarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Agar mashg'ulot mazmuni sodda bo'lsa yoki e'tibordan chetda qolsa motivatsiyasi kamaya boshlaydi. Bu jarayon uzluksiz davom etsa o'zlarini mashg'ulotlardan chetlashni boshlaydi, nostandart yechimlar taklif qilishni xohlamay qoladilar. Bu toifadagi o'quvchilarni rag'batlantiruvchi vositalar – o'quv mashg'ulotida shakllantirilgan muammoli, evristik vaziyatlar bilan bog'liq kundalik-amaliy topshiriqlar hisoblanadi. Shuningdek, muammoni yechishga doir "muammoli suhbat", "rolli vaziyatlar" yoki "ekspert bilan suhbat" ularni kognitiv faollashtiruvchi metodlar hisoblanadi.

3. O'quvchilarning uchinchi toifasida ijodiy faol hisoblanadi. Ular kreativ, nostandart, tanqidiy fikrlash, idrok etishning yorqin tasviri, sof individual tasavvur va atrofda duniyoga o'ziga xos munosabatda bo'lish bilan tavsiflanadi. Bu esa o'qituvchining o'quvchilardagi ijodkorlikka bo'lgan ehtiyojini qondirishga, o'zini namoyon qilishga imkoniyat yaratishga yo'naltiradi. Albatta, bunda fan doirasida o'tkaziladigan tadbirlar, viktorinalar, turli musobaqalar, loyihalar o'quvchilar ijodiy faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kognitiv mustaqillikni rivojlanish sohalarning bir yoki bir nechta bilan chegaralash imkonsiz. Rivojlanish sohalari o'zaro bog'liq va uzviy xarakterga ega. O'quvchilarni maktabga tayyorlashda ularning individual ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash, didaktik o'yinlar orqali ta'lim berish, o'quvchining shaxsiy "men"ining rivojlanishi va ijtimoiylashuvi uchun shart-sharoit yaratish, o'quvchining har tomon-

lama rivojlanishi uchun xavfsiz muhit yaratish, milliy va umummadaniy me'yorlarga rioya qilishni hisobga olish muhim hisoblanadi.

O'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantiruvchi usullar quyidagicha:

- o'quvchilarni o'z fikrlarini asoslashga o'rgatish;
- munozara va muhokama uchun qiziqarli vaziyatlarni keltirib chiqarish;
- o'qituvchi tomonidan boshqa o'quvchilarga savollar berish imkoniyatini yaratish;
- o'zgalarning fikrlari, javoblariga munosabat bildirishni qo'llab-quvvatlash;
- boshqa o'quvchilarning fikrlarini xolis baholashga o'rgatish;
- o'quvchilarning o'rganish strategiyasiga muvofiq individual va differentstiallashgan yondashuv;
- ko'p yechimli kognitiv vazifa (muammo) dan o'quv mashg'ulotlarida foydalanish;
- o'z-o'zining natijalarini baholash, shaxsiy kognitiv va amaliy faoliyati natijalarini baholash va tahlil qila olishlik;
- kognitiv muammolarni bir nechta yechish usullarini ko'rsatish.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlanishida o'qituvchi tomonidan quyidagilar hisobga olinishi lozim:

- o'quvchilarni muloqotga va hamkorlikka yo'naltirish;
- topshiriqlarning "kognitiv mustaqillikni ta'minlash"ga yo'naltirilganligi;
- o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzuga munosabatni shakllantirishda muammoli vaziyatlarni to'g'ri tanlanganligi;
- asosiy tushunchalarning semantik jihatdan to'g'ri tanlanganligi;
- o'quv maqsadi, mazmuni va maqsadga erishish yo'lini to'g'ri loyihalash;
- o'quvchilarning o'z faoliyatini o'zi baholash imkoniyatini berish.

Ta'kidlash joizki, kognitiv mustaqillik subyektiv va obyektiv omillar ta'sirida rivojlanadigan murakkab shaxsiy shakllanish jarayoni hisoblanadi. Umumta'lim maktablaridagi barcha o'quvchilar o'qituvchining individual yondashuviga, qo'llab-quvvatlashiga, yo'naltirishiga birdek ehtiyojga ega. O'qituvchining bu faoliyati o'quvchilarning ijodiy va ijtimoiy faol shaxs bo'lishida katta ahamiyatga ega.

1-jadval. Bo'lajak o'qituvchilarni kundalik-amaliy topshiriqlar asosida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlashning didaktik shart-sharoitlari

№	Didaktik shart-sharoitlar	MEZONLAR
1	Ijtimoiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash	<ul style="list-style-type: none"> – topshiriqlarni o'quvchilar motivatsional preferentsiyalariga yo'naltirish; – topshiriqni bajarishda o'quvchilarning hamkorlikda o'rganishi va hamkorlik qilishlikka shart-sharoitlar hisobga olinganligi.
2	Kundalik-amaliy kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilganligi	<ul style="list-style-type: none"> – o'quvchilar kompetensiyalar reyestri orqali tayanch kompetensiyalarni rivojlanib borishini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lishi; – o'quvchilarning o'zini mustaqil va o'zini o'zi boshqaruvchi subyekti sifatida his etishi, erkin so'zlashi va faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash; – o'quvchilarning o'z o'quv faoliyatini tahlil qilish va yangi ilmiy ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonlarida yetakchi rolni egallashi, o'zini o'zi rivojlantirishga intilishi; – o'quvchilarning muhim kundalik-hayotiy muammolarni hal etish amaliyotini o'rganishi; – topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilarning o'z faoliyati natijalari va imkoniyatlari darajasini obyektiv baholashi, refleksiv tafakkurni rivojlantirish; – topshiriqlar yuzasidan o'quvchilar mustaqil fikrini bildira olishligi; – topshiriqlarning o'quvchilarning kundalik hayoti, kuzatishlariga, qiziqishlariga bog'liq muammoli vaziyatlar bilan to'ldirilganligi; – o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning turli o'zlashtirish darajasi inobatga olinishligi.
3	Kundalik-amaliy topshiriqlaridan foydalanish	<ul style="list-style-type: none"> – o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini oshiruvchi topshiriqlardan foydalanish; – o'quv topshiriqlari orqali erishish lozim bo'lgan natijalarning shaffof bayon etilishi; – o'quvchilar kundalik-amaliy topshiriqlarni bajarilishi, ularning mazmuni, tuzilishi, topshiriq qismlarining bir-biri bilan bog'liqligi xususida doimiy fikr almashish; – topshiriq negizida ma'lum fan yoki fanlararo tushunchalarning mavjudligini ta'minlash; – topshiriqda "didaktik tarmoq"ni aks ettirilganligini ta'minlash; – topshiriqlarni oddiydan murakkablikka yo'naltirilganligini ta'minlash; – o'quvchilarning "kognitiv mustaqilligi"ni ta'minlovchi topshiriqlar ishlab chiqish; – topshiriqlarda "to'liq faoliyat" qamrab olingan bo'lishligi (topshiriqni yechish uchun zaruriy ma'lumotlarni izlash, topshiriqni bajarish bosqichlari va zaruriy vositalarni rejalashtirish, topshiriqni yechish, o'z natijalarini baholash va namoyish qilish);
4	Ta'lim tamoyillarining qo'llanilishi	<ul style="list-style-type: none"> – muloqot orqali o'rganish imkoniyati; – o'quvchilarning o'zlashtirishiga muvofiq differentsiallash; – hamkorlikda ta'lim olish imkoniyatini yaratish; – "kashfiyot qilib o'rganish" tamoyilini tatbiq etish; – "to'liq faoliyat" orqali o'rganish.
5	Kognitiv mustaqillikni qo'llab-quvvatlash	<ul style="list-style-type: none"> – o'quvchilarning fan va undagi mavzularning o'z hayotiga, qiziqishlariga bog'liqligini tushunishi va anglashi; – maktabda o'qib-o'rganish, mustaqil ta'limga bog'liq savollar, muammolar bo'yicha tizimli suhbatlarning tashkil qilinishi; – o'quvchilarning o'quv mashg'uloti maqsadi, mazmuni va metodlarini aniqlashtirishdagi ishtirokini ta'minlash; – nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik, o'quv-fanlararo bog'liqlikning ta'minlanganligi, ta'lim mazmunining turli vaziyatlarga moslanganligini ta'minlash.
6	O'quvchilarda emotsional labilizatsiyani keltirib chiqarish	<ul style="list-style-type: none"> – o'quvchilarda o'quv fani va topshiriqlar bo'yicha kognitiv dissonansni ishlab chiqilmasligiga erishish; – o'quv fani o'quvchilar tomonidan muhim deb topilishiga erishish; – o'qish, o'rganish, mustaqil ta'lim olish va kelgusi kasbiy va shaxsiy rivojlanishga tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo'lishi, amaliy ahamiyati va zaruriyatini anglab etishi, intilish hissiyotlarini shakllantirish.

O'quvchilarning kundalik-amaliy topshiriqlar asosida kognitiv mustaqilligini rivojlantirishda o'qituvchi yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi vazifasini bajarishi taqozo etiladi. O'quv jarayonida o'quvchilarda kundalik-amaliy kompetensiyani rivojlanishi quyidagi talablarni bajarishni nazarda tutadi:

- o'quvchilarning kognitiv faolligi va mustaqilligi ta'minlash;
- o'qishga sog'lom, kuchli hamda ta'sirchan motivatsiyasini shakllantirish;

- o'zini mustaqil va o'zini o'zi boshqaruvchi subyekt sifatida his etishi;
- erkin so'zlashi va faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash.

O'quv mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishi topshiriqlarning o'quv maqsadlariga mos ravishda tanlanishi, didaktik jihatdan asoslanishi va ta'lim maqsadlariga yo'naltiruvchi didaktik vosita sifatida tanlashi o'qituvchining professional yondashuviga bog'liq bo'ladi. Topshiriqlar davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan fanga oid

2-jadval. Kundalik-amaliy topshiriqlarga qo'yilgan didaktik talablar va ularni mohiyatini aniqlashtirishga yo'naltirilgan savollar

№	Kundalik-amaliy topshiriqlarga qo'yilgan didaktik talablar	Didaktik talablar mohiyatini aniqlashtirishga yo'naltirilgan savollar
1	O'quvchilar motivatsional preferentsiyalarini hisobga olish	<ul style="list-style-type: none"> – Qaysi kontekst o'quvchilar uchun qiziq hisoblanadi? – Hozir o'quvchilar uchun qaysi mavzular qiziqarli?
2	O'quvchilarning hamkorlikda o'rganishini ta'minlash	<ul style="list-style-type: none"> – Topshiriqni hamkorlikda ishlashi uchun didaktik jihatdan tahlil qilinganmi? – Topshiriqning barcha bosqichlarida o'zaro hamkorlik qilish nazarda tutilganmi?
3	Tayanch kompetentsiyalarni rivojlanib borishini nazorat qilish	<ul style="list-style-type: none"> – O'quvchilar topshiriqni bajarish orqali o'z natijalarini baholash imkoniyati mavjudmi? – Topshiriqda bevosita va bilvosita kompetentsiyalar rivojlanishi nazarda tutilganmi?
4	O'quvchilarning o'zini mustaqil boshqaruvchi subyekt sifatidagi rolini oshirib borish	<ul style="list-style-type: none"> – O'quvchilarning o'z o'rganish jarayonlarini mustaqil boshqarish malakasini rivojlantirish uchun qanday strategiyalarni qo'llash mumkin va bu strategiyalar ularning ta'lim jarayonidagi faolligini qanday oshiradi? – O'quvchilarning o'z maqsadlarini belgilash va ularga erishish qobiliyatini mustahkamlash orqali ularni ta'lim jarayonida yanada faol ishtirokchi sifatida shakllantirish uchun qanday metodlar samarali bo'lishi mumkin?
5	O'quvchilarning yetakchi rolni egallashi, o'zini o'zi rivojlantirishga intilishini ta'minlash	<ul style="list-style-type: none"> – O'quvchilar o'z maqsadlarini belgilash va ularga erishish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin va ushbu qiyinchiliklarni yengishda ularning o'zini o'zi rivojlantirishga intilishini qanday kuchaytirish mumkin? – O'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshirish orqali ularni o'zini o'zi rivojlantirishga qanday undash mumkin va bu jarayon ta'limdagi yutuqlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6	Muhim kundalik-hayotiy muammolarni topshiriqlar mazmuniga singdirish	<ul style="list-style-type: none"> – O'quvchilarning ekologik, iqtisodiy yoki ijtimoiy muammolarni tushunishlari va ularni yechish yo'llarini izlash uchun topshiriqlar qanday qilib yaratilishi mumkin? – Darsda muhokama qilinadigan mavzularni o'quvchilarning kundalik hayoti bilan bog'lash orqali ularning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini qanday oshirish mumkin?
7	O'quvchilarning o'z kundalik-amaliy tajribalarini obyektiv baholashi va refleksiv tafakkurni rivojlantirish	<ul style="list-style-type: none"> – Refleksiv tafakkurni rivojlantirish orqali o'quvchilarning o'z faoliyati va qarorlarining tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish mumkin? – O'quvchilarning kundalik-amaliy tajribalaridan kelib chiqib, o'z xatolarini tan olish va ulardan saboq olish qobiliyatini rivojlantirish uchun qanday topshiriqlarni qo'llash mumkin?
8	Topshiriqlar yuzasidan o'quvchilar mustaqil fikrini bildira olishiligi	<ul style="list-style-type: none"> – O'quvchilarning mustaqil fikrini shakllantirishi uchun qanday usullar samarali bo'lishi mumkin va bu ularning ijodiy fikrlash qobiliyatiga qanday ta'sir qiladi? – Topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarning turli yondashuvlar va nuqtai nazarlarni mustaqil tahlil qilishiga qanday rag'batlantirish usullari yordam beradi?
9	O'quvchilarning shaxsiy kuzatishlariga, qiziqishlariga bog'liq muammoli vaziyatlar bilan to'ldirish	<ul style="list-style-type: none"> – O'quvchilarning shaxsiy kuzatishlari va qiziqishlariga asoslangan muammoli vaziyatlarni topshiriq mazmuniga qanday integratsiya qilinadi? – O'quvchilarning qiziqishlari va shaxsiy tajribalariga bog'liq muammoli vaziyatlar yaratish orqali ularda tahlil qilish va yechim topish qobiliyatini qanday rivojlantirish mumkin? – O'quvchilarning o'z hayotlarida uchraydigan muammolarni darsdagi muammoli vaziyatlarga integratsiya qilish orqali ularda qanday ko'nikmalarni shakllantiriladi?
10	O'qituvchi tomonidan o'quvchilarning turli o'zlashtirish darajasi inobatga olinishligi	<ul style="list-style-type: none"> – O'qituvchi qanday usullar bilan o'quvchilarning individual o'zlashtirish darajalarini aniqlab, ularning ehtiyojlariga mos topshiriqlarni tayyorlashi mumkin? – O'quvchilarning turli o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda kichik guruhlar qanday shakllantiriladi? – O'quvchilarning bilim darajasidagi farqlarni inobatga olgan holda qanday qilib har bir o'quvchining imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga erishish mumkin?

va kundalik-amaliy kompetentsiyalarning shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiluvchi didaktik vosita vazifasini bajaradi. O'qituvchi topshiriqlar orqali o'quv jarayonini moslanuvchanligi va to'liqligiga erishishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani konsepsiyasida shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlarni, ijtimoiy kabi fazilatlarni shakllantirish kun tarkibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

Jamiyatda tarbiyaning bosh vazifasi – jamiyat hayotida zarur bo'lgan kerakli sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Tarbiya jarayonida doimiy va o'zgarmas maqsad qo'yilmaydi, chunki o'zgarmas maqsad har qanday jamiyatga ham mos bo'lavermaydi va ijtimoiy munosabatlarni o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi o'zgaradi. Tarbiya turli xil davrlarda va turli xil jamiyatlarda o'zgarmas jarayon bo'lib qolmaydi. Tarbiyaning maqsadlari, mazmuni shakl va metodlari har bir tarixiy davrda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Inson shaxsini shakllantirish bo'yicha har bir ijtimoiy tuzum yo'nalishiga mos ravishda talablar qo'yiladi. Tarbiyaning barcha tarixiy davrlar

uchun xos bo'lgan ba'zi bir umumiy belgilari ham mavjud. Pedagogik go'yalar va tarbiyaviy ishni rivojlantirishda muayyan darajadagi aloqa va ma'lum bir davomiylik mavjud.

Mehnat bozorida o'zgarishlar va tendentsiyalarni kuzatish, tahlil qilish orqali ta'lim berish va kompetentlik talablarini baholashni takomillashtirib borish va bu orqali o'quvchilarni o'zgaruvchan hayotga tayyorlash lozim bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kundalik-amaliy topshiriqlar vositasida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlashda quyidagi didaktik talablar qo'yiladi (2-jadvalga qarang).

Xulosalar.

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish orqali o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

2. Shuning uchun "Tarbiya" fani bo'yicha o'quvchilarga sifatlil bilim berish, ularni to'g'ri tarbiya yo'liga yo'naltirish, zarur bilim va hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishlariga, mustaqil hayotga moslashishlariga ko'mak ko'rsatish, turli vaziyatlarda huquqiy, ma'naviy mezonlarga asoslangan holda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентного подхода в образовании. - www.eidoc.ru. 2005.09.10.
2. Давлетшин М., Дўстмухамедова Ш., Мавлонов М., Тўйчиева С., Джумабаева М. Ёш ва педагогик психология. – Т.: 2007. – Б. 45. (144).
3. DiMaggio P. Culture and cognition. Annual Review Of Sociology, 1997. 263-287. doi:10.1146/annurev.soc.23.1.263
4. Jumaniyozova M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016.
5. Lethiger H. Learning and performance tasks in a competency-oriented classroom // <https://www.budrich-journals.de/index.php/HiBiFo/article/view/File/10123/8722>. – P. 12-24.
6. Мещерякова Б.Г., Зинченко В.П. Большой психологический словарь. – М.: Прайм-ЕВРОЗНАК. 2003. – С. 56.
7. Подласый И. П. Педагогика в 2 т. Том 1. Теоретическая педагогика в 2 книгах. Книга 1., 2018.